O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
# BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

«TASDIQLAYMAN»

O`quv ishlari bo`yicha prorektor

_____ R.G`. Jumayev

«____»_____ 2024 y.

«KELIShILDI»

O`quv-uslubiy department
boshlig`i _____ M.A. Tursunov

« 02 » 05 2024 y.

« KELIShILDI»

Xorijiy tillar fakulteti
dekani _____ N.B. Ataboyev

«____»_____ 2024 y.

√ 5111400- Xorijiy til va adabiyot (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari
uchun ixtisoslik fanlaridan
Yakuniy davlat attestatsiyasi imtihon
DASTURI

3.00. Ixtisoslik fanlari:

3.01.04 Stilistika
3.03 Tili o'rganilayotgan mamalakatlar adabiyoti
2.05. Xorijiy tillarni o'qitishda madaniyatlararo muloqotni shakllantirish
2.06 Chet tillarni o'qitishning integrallashgan kursi

Buxoro – 2024 yil

Mazkur dastur Xorijiy til va adabiyot (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari uchun ixtisoslik va umumkasbiy fanlardan yakuniy davlat attestatsiyasi imtihonlarini o'tkazish uchun mo'ljallangan.

"O'rganilayotgan til nazariy aspektlari" fani ixtisoslik fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, bosqichma bosqich 2,3,4-kurslarda o'qitiladi. Ushbu fan xorijiy tillar bo'yicha mutaxassislar tayyorlashga ixtisoslashgan ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, boshqa umumkasbiy va ixtisoslik fanlarining nazariy va uslubiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

Dastur to'rtta ixtisoslik fanlari, jumladan Stilistika, Tili o'rganilayotgan mamalakatlar adabiyoti, Xorijiy tillarni o'qitishda madaniyatlararo muloqotni shakllantirish, Chet tillarni o'qitishning integrallashgan kursi fanlari namunaviy dasturlari asosida tuzilgan.

Tuzuvchilar:

D.I.Xodjayeva, Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik kafedrasi mudiri, f.f.f.d., dotsent

F.M.Xajiyeva, Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik kafedrasi professori, f.f.d.

G.P.Nazarova, Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik kafedrasi dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

Taqrizchilar:

Davlatova M.H.   Buxoro davlat tibbiyot instituti "Ingliz tili" kafedrasi mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Xamdamova G.H   Buxoro davlat Pedagogika instituti "Xorijiy tillar" kafedrasi mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Yakuniy Davlat attestatsiyasi dasturi Xorijiy tillar fakulteti uslubiy kengashining 2024 yil 30.04 dagi 8 sonli yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqqa tavsiya etilgan.

Yakuniy Davlat attestatsiyasi dasturi Buxoro davlat universiteti Uslubiy Kengashining 20__yil _____-sonli yig'ilishida muhokama qilingan va asdiqlangan.

KIRISH

1.1. O`quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o`rni

Ushbu fan muloqotning turli bosqichlarida tilni faol egallash, malaka va ko'nikmalarini takomillashtirish, muloqotning yozma va og'zaki shakllari tarkibida qo'llaniladigan turli-tuman tasviriy vositalar va uslubiy usullarning hissiy-ta'siriy vazifalarini tadqiq eta olish, turli muloqot turlari, jumladan, an'anaviy, badiiy va ilmiy muloqotni o'rganish bilan bir qatorda biznes sohalarida ham muloqot malakalariga ega bo'lishni taqozo etadi. Bundan tashqari, bunday tayyorgarlik, bo'lajak mutaxassisga ongli o'qishga o'rgatish usullarini yaxshiroq egallash imkonini beradibadiiy matnni murakkab struktural butunlik tarzida tushunishga o'rgatadi. Tafakkur va hissiyotni nozik sezish, umumiy g'oya va ta'sirchanlikni kuchaytirish, estetik did, badiiy adabiyotni o'qishning yuksak madaniyatini yaratish imkonini beradi.

Bu fanlarni o'qitish talabalarni tili o'rganilayotgan mamlakat adabiyoti, stilistika, xorijiy tillarni o'qitishda madaniyatlararo muloqotni shakllantirish, chet tillarni o'qitishning integrallashgan kursi kabi aspektlarning ilmiy asoslari va filologik fanlar o'rtasidagi o'rni to'g'risidagi bilimlar bilan qurollantiradi.

Mazkur fan ixtisoslik fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, bosqichma bosqich 2,3,4-kurslarda o'qitiladi. Ushbu fan xorijiy tillar bo'yicha mutaxassislar tayyorlashga ixtisoslashgan ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, boshqa umumkasbiy va ixtisoslik fanlarining nazariy va uslubiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

1.2. O`quv fanining maqsad va vazifasi

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarni til to'g'risidagi asosiy nazariy tushunchalar, chet tilini o'rganishning uslub va yondashuvlari, tilning ilmiy bilimlar tizimida tutgan o'rni va ahamiyati bilan tanishtirish, ularga til sathlarining nutqiy muloqot jarayonida kuzatiladigan asosiy qonuniyatlarini o'rgatishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarda tilning ichki tuzilmasi, til qatlamlari va birliklarini ilmiy asosda tadqiq etish ko'nikmalarini shakllantirish hamda ularning bir-biri bilan o'zaro munosabatlari to'g'risida ilmiy-nazariy tushunchalarga ega bo'lishlarini ta'minlash vazifalarini bajaradi.

5111400- Xorijiy til va adabiyot (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari uchun ixtisoslik fanlaridan Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi yozma ishlarini BAHOLASH MEZONLARI

Bakalavriat yo'nalishlariga yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi yozma usulda o'tkaziladi. Har bir variant 4 savoldan iborat. Variantdagi 4 ta savolning har biridan olish mumkin bo'lgan maksimal ball 25 ga teng bo'lib, jami 100 ball to'plash mumkin.

Har bir savolga javob to'g'ri va to'liq yoritilsa, fanga doir zamonaviy

nazariyalarni bilishi, mustaqil, aniq fikrlar asosida muammolarga ijodiy yondashgan holda yoritilsa, javobda mantiqiy yaxlitlikka erishilgan bo'lsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi 21,5-25 ball oralig'ida baholanadi.

Savolga to'g'ri javob yozilsa, fanni ilmiy-amaliy jihatdan asosli mantiqli yoritilgan bo'lsa, biroq til nazariyasining asoslarini, lingvistik qonunlar va tushunchalar kategoriyalarini, muloqot jarayonlarining funksional diskurs xususiyatlaridan foydalanishda ayrim noaniqliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi 21-18 ball oralig'ida baholanadi.

Savolga asosan to'g'ri javob yozilsa, biroq qo'yilgan masalaning mohiyati, mazmuni, natijalari yuzaki yoritilsa, fikr-mushohada bayonida tarqoqlik kuzatilsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi 17,5-14 ball oralig'ida baholanadi.

Savolga javoblar noto'g'ri yozilsa, o'quv adabiyotidan so'zma-so'z ko'chirilgan bo'lsa yoki savollarga, umuman, javob yozilmagan bo'lsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi 0-13,5 ball oraliggida baholanadi.

T.r.	Umumiy ball	Baho	Bakalavr talabasining bilim darajasi	Ballar taqsimoti
1	21,5-25	A'lo (90-100)	Lisoniy muloqot jarayonlarini tahlil qilish usullarini qo'llash, muloqotning yozma va og'zaki shakllari tarkibida qo'llaniladigan turli-tuman tasviriy vositalar va uslubiy usullarning hissiy-ta'siriy vazifalarini tadqiq eta olish, turli muloqot turlari, jumladan, an'anaviy, badiiy va ilmiy muloqot malakalariga ega;	8- 8,5
				7- 7,5
			Qo'yilgan savollar mazmunan aniq yoritilib, o'rganilgan xorijiy til strukturasi, qurilishi va lug'at tarkibining asosiy tushunchalari va kategoriyalari mazmun-mohiyati to'liq ochib berilgan;	5-6,5
			Til nazariyasining asoslarini, lingvistik qonunlar va tushunchalar kategoriyalarini, muloqot jarayonlarining funksional diskurs xususiyatlarini bilishi va ulardan foydalana olish bo'yicha mustaqil, ijodiy fikr mavjudligi;Javoblarda mantiqiy yaxlitlikka erishilgan va umumiy xulosalar qilingan, imlo va stilistik xatolarga yo'l qo'yilmagan.	1,5-2,5
2	18 -21	Yaxshi (70-89)	Javob to'g'ri yozilgan, unda lingvistik bilimlar asosli yoritilgan, ammo muloqot jarayonlarining funksional diskurs xususiyatlari ifodalanmagan yoki chalkashliklarga yo'l qo'yilgan.	6-7
				5,5-6
			Javobda talabaning mustaqil mushohada	3,5-4

3	14-17,5	Qoniqarli (60-69)	Savolga javobda masalaning mohiyati tushunilgan, ammo mazmun va natijalar yuzaki yoritilgan. Fikrlar bayonida tarqoqlik kuzatiladi. Javoblarda mantiqiylik tamoyili buzilgan. Tasavvurga ega, lekin tahlil yetarli emas.	5-6 4-4,5 3-4 2-3
4	0-13,5 gacha	Qoniqarsiz (0-59)	Savol bo'yicha aniq tasavvurga ega emas. Umuman javob yozilmagan. Noto'g'ri javob va ma'lumot berilgan. O'quv adabiyotidan aynan so'zma-so'z ko'chirilgan.	0-13,5

3.03 Tili o'rganilayotgan mamalakatlar adabiyoti fanining asosiy nazariy qismi

1-mavzu. Fanga kirish. O'rta asrlar adabiyoti

Buyuk Britaniya va AQSH adabiy jarayonlarining tarixiy rivojlanishi vamuhim hodisalari. Buyuk Britaniya va AQSH adabiyotini jahon adabiyoti rivojiga qo'shgan hissasi Ilk o'rta asrlar Buyuk Britaniya adabiyotining asosiy yo'nalishlari va uning ingliz tili rivojlanishiga ta'siri. Kelt kabilalari, Rim imperiyasining bosqinchilik siyosati va anglo-saks hamda yutlar. V-VI asrlardagi ingliz adabiyoti.

2-mavzu. Ilk uyg'onish davri

Ilk uyg'onish davri madaniyati va O'rta asrlar adabiyoti tushunchasi. O'rta asrlarda antik va madaniy merosning o'rni. XIV asr xalq harakatlari davrida ijtimoiy va g'oyaviy ziddiyatlarining adabiyotda ifodalanishi. J.Choser – o'rta asrlar adabiyotining demokratik an'analarini umumlashtirgan san'atkor Buyuk Britaniya ilk renessans davri adabiyotining jarchisi. J.Choserning «Kenterberi Hikoyalari» asarida hayotning haqqoniy aks ettirilishi.

3-mavzu. Uyg'onish davri adabiyoti

G'arbiy Yevropa adabiyoti. Uyg'onish davri haqida tushuncha. Buyuk Britaniya adabiyotida uyg'onish davri. Tomas Mor ingliz uyg'onish davri adabiyotining vakili. T.Morning "Utopiya" asari. Drama va teatrning paydo bo'lishi hamda rivojlanishi. F.Bekon va K.Marloning ijodiy faoliyati. Buyuk ingliz adibi Uilyam Shekspir ijodining umumjahon ahamiyati. Shekspir ijodining davrlarga bo'linishi. Shekspir asarlaridagi tarixiy voqealar va syujetlar manbalarining muammolari.

4-mavzu. U. Shekspir tragediyalari va tarixiy dramalari

U. Shekspir xronikalari va fojeaviy asarlari. "Romeo va Julyetta" o'rta asr fanatizmi ustidan g'alaba qilgan buyuk insoniy sevgini kuylovchi asar. Ijtimoiy kuchlar ziddiyati - fojea negizi. Qahramonning shaxsiy fojeasi zamonning ijtimoiy konflikti darajasiga ko'tarilishi. "Gamlet", "Otello", "Kirol Lir"- Shekspir ijodining yangi davri. Fojeaning ijtimoiy, tarixiy falsafasiy va psixologik muammolari.

5-mavzu. XVII asr ingliz adabiyoti.

B.Jonson ijodi "sen uning yemirilishi", "Katalina: uning isyoni" tragediyalarida absolyut hokimiyatga qarshi kurash g'oyasining aks etishi. B.Jonson komediyalarida ingliz hukmron doiralarining satirik obrazi. Restavratsiya davrining

adabiyotga bo'lgan ta'siri. J.Milton ijodi. "Yo'qotilgan jannat" epik poemasida siyosiy voqealarning tasvirlanishi, Milton dunyoqarashidagi ziddiyatlar.

6-mavzu. XVIII asr ingliz ma'rifatchilik adabiyoti

Ingliz adabiyotida ma'rifatchilik davrining o'ziga xosligi. Jurnalistikaning taraqqiyoti. Ma'rifatchilikning ikki yo'nalishi. D.Defoning jurnalistik faoliyati, asarlarida jamiyatning chirkin hayotini haqqoniy tasvirlashi. Defo badiiy uslubining o'ziga xosligi. Defo adabiyotning - xalqchilligi uchun kurashchi. D.Defo ma'rifiy-realistik romanlar ijodkori "Robinzon Kruzo" asarining ma'rifiy ahamiyati.

7-mavzu. Yetuk ma'rifatchilik davri adabiyoti

Buyuk Britaniya ma'rifatchilik adabiyotining so'nggi davri. G.Fildingning ijodiy faoliyati. Filding roman janri ustasi sifatida. Filding romanlarida ijobiy qahramon va obrazlar muammosi. Tom Jons obrazi. Xarakterni qarama- qarshiliklar orqali hamda rivojlanishda ochib berishga intilish. Filding romanlarida syujet qurish tamoyillari va tipiklashtirish muammosi. Ingliz realistik romanining rivojida T.J.Smollet ijodining ahamiyati.

8-mavzu. XIX da ingliz romantizm adabiyoti

Buyuk Britaniya adabiyotida romantizm va uning o'ziga xos xususiyatlari. R. Berns - buyuk shotland shoiri va uning ijodiy faoliyati. U.Blyek she'riyati va uning ingliz adabiyoti tarixidagi o'rni. U Bleykning ijodiy falsafiy faoliyati "Qo'l maktabi" "Angliya inqilobiy romantizm" tushunchalari "Leykist"larning adabiy novatorligi.

9-mavzu. Taraqqiyparvar romantizm vakillari

Taraqqiyparvar romantizmni tarixixiy negizlari va asosiy vakillari J.Bayronning hayoti va ijodi. "Chayld Garoldning ziyorati" dostonida Yevropa mamlakatlari milliy ozodlik harakati haqidagi romantik qarashlari, uning siyosiy "Sharq dostonlari". "Don Juan" asarlarida adabiy ahamiyati, Bayronning novatorligi Romantizm va realizm uslublarining bog'lanib ketishi.

10-mavzu. XIX asr Buyuk Britaniya adabiyotida realizm oqimi taraqqiyoti

XIX asrning 30-50 yillarda realizmning ingliz adabiyotida yetakchi uslub sifatida qaror topishi, Viktorian davr adabiyoti tushunchasining shaklanishi Ch.Dikkens-ingliz realizmining yirik vakili. Ch.Dikkens ijodining davrlarga bo'linishi. Ch.Dikkensning estetik qarashlari va uning ijodidagi demokratik an'analar.

11-mavzu. XIX asr Buyuk Britaniya ayol yozuvchilari

Ingliz realizm rivojida ayol yozuvchilar roli. Opa-singil Brontelar ("Jeyn Eyr", "Momoqaldiroqli dovon", "Agnes Grep"). E.Gaskell ("Meri Barton", "Shimol va Janub", "Ayollar va qizlar") romanlari. J.Eliot ijodi. ("Flossdagi tegirmon", "Midlmarch" asarlari). Ayol obrazining yangicha tasvirlanishi. Ingliz ayolini jamiyatda tutgan o'rni va mavqei.

12-mavzu. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlari Buyuk Britaniya adabiyoti

Viktorian davrning so'nggi bosqichi. T.Gardi hayoti va ijodi. Uning asarlarida tushkunlik va fatalizm kayfiyatlari. Romanlardagi qishlok hayoti tasviri, odob-axloq masalasi Ingliz detektiv janrining rivoji. Artur Konan Doyl ushbu janr rivojiga qo'shgan hissasi. Edvardian davr adabiyoti.

13-mavzu. XX asr Buyuk Britaniya adabiyoti

J.Golsuorsi va uning "Forsaytlar haqida saga" asari. Adib ijodida XIX asr realizmi an'analari. XX asr birinchi yarimida Buyuk Britaniya ijtimoiy hayotini romanlarda tasvirlanishi. Ingliz dramasidagi yangi davr. B.Shouning adabiy-tanqidiy faoliyati. B.Shou va fabian jamiyati. B.Shou ijodida urush va mustamlakachilikka qarshi kayfiyatlarning aks ettirilishi.

14-mavzu. I va II jahon urushi davrida Buyuk Britaniya adabiyoti

Birinchi va ikkinchi jahon urushlarining adabiyotga bo'lgan ta'siri. Shu davrda yangi adabiy yo'nalishlar rivoji. Modernizm san'at va adabiyotda. Modernizm turlari, uslublari va asosiy g'oyalari. "Yo'qotilgan avlod" tushunchasi. Richard Oldington va uning "yo'qotilgan avlod"ga bag'ishlangan romani "Qahramonning o'limi". Muallifning I jahon urushiga munosabati.

15-mavzu. II jahon urushidan keyingi Buyuk Britaniya adabiyotining taraqqiyoti

Ikkinchi jahon urushidan keyingi Buyuk Britaniya adabiyoti. Postmodernizm Tushunchasi. Ch.Snou ijodini ingliz adabiyotiga bo'lgan ta'siri. Ijtimoy masalalari tasviri Ekzistensializm falsafasi namoyandalari U Golding, Ayris Merdok, - Myuriel Spark, Dj.

16-mavzu. Zamonaviy Buyuk Britaniya adabiyoti

XX asrning oxirida ingliz adabiyoti taraqqiyotining o'ziga xosligi Neoviktorian adabiyotini paydo bo'lishi (A. Bayett, J. Ris, P. Akroyd, Ch.Paldisser va boshqalar).

Fentezi janri taraqqiyoti. J.R. Tolkiyen, K.S. Lyus, J. Roulinglar ijodi. Ushbu davr ingliz she'riyati. "Liverpul shoirlari" ijodi B. Peyten, Adrian Xenri, R. Makgaff) asarlari. J. Jozef va boshqalar) "The movement" shoirlari (F. Larkin. E. Djennings, J.Jozef va boshqalar)

17-mavzu. Amerika kolonial davri adabiyoti

AQSH adabiyoti va uning jahon madaniyatida tutgan o'rni. AQShning tarixiy rivojlanishi xususiyatlari va amerika adabiyotida milliy o'ziga xoslik uning o'ziga xos xususiyatlari. Hindu kabilalarining xalk og'zaki ijodi namunalari

18-mavzu. Amerika ma'rifatchilik davri adabiyoti

Amerika ma'rifatchilik davri (1776-1820) adabiyotining o'ziga xos jurnalistikasi xususiyatlari Amerika ma'rifatchilik adabiyoti. Ma'rifatchilik adabiyoti AQShning birinchi milliy shoiri F.Frenso she'riyatining g'oyalari.

19-mavzu. Amerika adabiyotida romantizm va transidentalizm

Iak romantizm davri V Irving, J.F.Kuper asarlari va ularning xususiyatlari. V.Irving ijodida Amerika o'tmishining badiiy romantikasi ("Rip Van Vinkl") Irving romantizmi xususiyatlari F.Kuper ijodi ("Josus", "Pionerlar", "So'ngi Mogikan"). Uning romantik uslubi xususiyatlari.

20-mavzu. Amerika adabiyotida abolitsionizm

Abolitsionizm tushunchasi. G.Bicher Stou va uning "Tom tog'aning kulbasi" asari. Quldorlik tuzumining qoralanishi. Shimol va Janub o'rtasidagi fuqarolar urushi va uning adabiyotda aks ettirilishi G.Longfello ijodi va dunyoqarashi. Irqchilik va quldorlikning tanqidi. "Qullik qo'shiqlari".

21-mavzu. XIX asrning oxiri XX asr boshlari Amerika adabiyotida realism

Realizm. XX asr boshi realizmida romantik unsurlar. "Asrlar bo'sagasi"da

AQSH adabiyotida yo'nalishlar kurashi. U. D. Xouells va X.Djeyms ijodlari, Mark Tven hayoti va ijodi. Yozuvchining ilk asarlarida xalq og'zaki ijodi an'analarining aks etishi va ijodning davrlarga bo'linishi. M.Tvenning Tom Soyer, Gek Finn haqidagi romanlari va AQShda tanqidiy realizmning shakllanishi.

22-mavzu. XX asr boshida Amerika adabiyoti
Teodor Drayzer ijodi va XX asr Amerika adabiyotida realizmning rivojlanish yo'llari. T. Drayzerning adabiy novatorligi ("Amerika fojeasi", "Jenni Gerxardt", "Baxtiqaro Kerri"). Jon Rid hayoti va ijodi. "Dunyoni qahshatgan 10 kun" romani.

23-mavzu. XX asr Amerika "Yo'qotilgan avlod" adabiyoti
20-yillar AQSH adabiyotida ijtimoiy realizm.
Amerika modernizmi. E.Xeminguey ijodida birinchi jahon urushi mavzusining aks ettirilishi. E.Xeminguey "O'zini yo'qotgan avlod" jarchisi sifatida. "Alvido, qurol" romani. Mati ostida ma'no- "Aysberg" tamoyili E. Xeminguey ijodning so'nggi davri. "Chol va dengiz" asari.

24-mavzu. XX asr davomida afro-amerikalik adabiyot taraqqiyoti
1910-1930 yillarda Xarlemda Uyg'onish davri. Afro-amerikalik yozuvchilar ijodi va ularning o'z fuqarolik huquqlari uchun kurashi. Afro-amerikalik yozuvchilarning ijtimoiy harakatlari. Klod Makkey, B. Vashington, Lengston Xyuz, Zora Xerston ijodi. XX asr ikkinchi yarmida afro-amerikalik yozuvchilar ijodi va asosiy mavzular evolyusiyasi.

25-mavzu. II jahon urushidan keyingi davr adabiyotida realizm
50-60 yillardagi yoshlar harakati "Bitniklar avlodi" R.P.Uorren, Dj. Keruak, A.Ginzberg. D. Selindjer romanlarida yosh avlod masalasi, I.Shou, Dj.Djons, N.Meyler. K.Vonnegud, D.Xeller urushda qatnashgan yozuvchilarning ijodiy faoliyati. II jahon urush tasviri. Hujjatli roman taraqqiyoti. Trumen Kapote hujjatli badiiy nasri va "Sovuq qon" romani

26-mavzu. XX asr Amerika dramaturgiyasi, fantastikasi va detektiv janri.
XX asr Amerika dramaturgiyasida ijtimoiy hayot tasviri. Yujin ONil, Edvard Olbi, Artur Miller, Tenessi Uilyams. Lilian Xelmen. Sem Sheppard Dramaturgiyasi Amerika ilmiy fantastika taraqqiyoti. R.Bredberi, A.Azimov, S.King ilmiy-fantastikalarida ijtimoiy mavzular ifodalanishi. Detektiv romanlar.

27-mavzu. Amerika adabiyotida ayol yozuvchilar
Yudora Ueti.Joys Karol Uots, Elis Uolkerlarning Amerika adabiyoti rivojiga qo'shgan hissasi. Qo'shma Shtatlarning laureat shoirasi Rita Davning asarlari. Yamayka Kinsayd, Toni Kedi Bambara va Uolker zamonaviy romannavislar ijodida nazarga yaqin va ishonchga sazovor odamlarning orzulari va omadsizliklarning tasvirlanishi.

28-mavzu. Zamonaviy Amerika adabiyoti
Zamonaviy Amerika adabiyoti, ijodiy oqimlar, uslub va mahorat masalasi. Dj. Gardner, Dj.Apdayk. Sol Bellou, Charlz Rayt, J.Grexemlarning ijodiy faoliyatlari. AQShda "multimadaniyat"(multicultural literature) adabiyot vakillari. Xindu amerika adabiyoti, Xitoy amerika adabiyoti, Yaxudiy amerika adabiyeti, Lotin amerika adabiyoti (Chikano adabiyoti) va boshqalar.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

. A companion to American Literature and Culture. Edited by Paul Lauter. UK: Blackwell Publishing, 2010.
2. Bakaeva M. Muratova E., Ochilova M. English Literature. Tashkent 2010.
3. English literature from the 19th century through today / edited by J.E. Luebering. p. cm. — (The Britannica guide to world literature) by Britannica Educational Publishing New York. 2011
4. English literature from the Restoration through the romantic period / edited by J.E. Luebering.—1st ed.;p. cm. —(The Britannica guide to world literature) by Britannica Educational Publishing New York. 2011

2.05 Xorijiy tilni o'qitishda madaniyatlararo muloqotni shakllantirish fani dasturining asosiy nazariy qismi

1-mavzu. Madaniyat tushunchasi nima? Madaniyatlararo muloqot.
Fanning mazmuni.Talabalarning ijtimoiy madaniy va kasbiy munosabatlarda adekvatligini ta'minlovchi ijtimoiy jamiyatda madaniy xususiyatlarini ko'nikmalarini rivojlantirish, jamiyatda qabul qilingan axloqiy va huquqiy me'yorlarga rioya etish va insonlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, ijtimoiy-shaxsiy ziddiyatli vaziyatlarda o'z fuqarolik pozitsiyasida sobitlik bearda jahon madaniyati qadriyatlari asoslarini o'rgatishdan iborat.

2-mavzu. Madaniyatlararo muloqot, xalqaro madaniy kompetentlik axamiyati.
Talabalarning sotsiolingvistik kompetentsiyalarini rivojlantirish, jumladan kasbiy faoliyatda krossmadaniy munosabatlar asosini, nutqqning noverbal vositalarini, o'ziga madaniyatda qabul qilingan etikat, marosimlar, axloqiy va ma'naviy me'yorlarni o'rganishlarini ta'minlashdir.

3-mavzu. Madaniyatlararo muloqotda ekstralingvistik masalalar – inson dunyoqarash, marosimlar, urf-odatlar.
Madaniyat tushunchasi, tili o'rganilayotgan mamlakatning urf-odatlari, madaniyatlararo muloqot fanining asoslari, stereotiplar, madaniyat turlari va shakllari haqida tasavvur va bilimga ega bo'lish.

4-mavzu. Madaniyatlararo muloqotda ekstralingvistik masalalar – inson a'zolari tili, tabular, stereotiplar.
Chet el muhitida nutqiy hamda ijtimoiy muloqot tajribasidagi kamchilik va nuqsonlarni ayrim verbal/noverbal vositalar yordamida to'ldirish, kommunikativ vaziyatda tushunmovchiliklar paydo bo'lganda takroran so'rash, uzr so'rash va hokazolar orqali murakkab vaziyatlardan chiqib keta olish ko'nikmalariga ega bo'lishi.

5-mavzu. Madaniyatlararo muloqotda ekstralingvistik masalalar – turli madaniyatlarda jamiyatning o'rni.
Autentik nutqning milliy xususiyatlarini – o'zi yashayotgan mamlakatning urf-odatlari, qadriyatlari marosimlari va boshqa milliy-madaniy xususiyatlari tili o'rganilayotgan mamlakat bilan taqqoslagan holda taqdim eta olish malakasiga ega bo'lishi.

6-mavzu. Chet tili darslarida til va madaniyat (salomlashuvlar, murozamatni aks ettirish, murojaat qilish yo'llari)
Turli davlatlarda salomlashuv turlari haqida tushuncha va ko'rsatmalar berib borish, guruhlar kesimida taqdimotlarda aks ettirish. Til lug'at tarkibining

etimologik jihatdan tasnifi. O'rganilayotgan tilda keyin paydo bo'lgan va boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar. Xorijiy tillardan kirib kelgan so'zlarning turlari.

7-mavzu. Chet tili darslarida til va madaniyat

Tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyatini matnlar. Audiolar va tur xildagi rasmlar va taqdimotlar orqali o'qitishni shakllantirish. Bu boradi til o'qitish metodikasi fanlari bilan uyg'unlikda darslar tashkil qilish.

8-mavzu. Madaniyatlararo ziddiyat, to'nashuvlarga sabab bo'luvchi omillar.

Mananiy ziddiyatlar va to'qnashuvlar sabab bo'luvchi urf-odatlar, chegara masalalari, siyosiy qarashlar va davlat tiliga doir qonunlar haqida muhokamalar yuritish. Bu masalalar bo'yicha turli millatlar vakillarini fikrlarini o'rganish.

9-mavzu. Madaniy shok.

Ushbu holatga duch kelmaslik va undan saqlanish buyicha turli fikrlarni video va audioda tinglash, bundan tashqari madaniy shokka uchragan insonlar bilan suhbatlar tashkil etish. Madaniy shok qanday oqibatlarga olib kelishi haqida muhokama qilish.

10-mavzu. Xalqaro madaniyatda o'zligini asrash.

Ma'lim bir sabalar bilan xorij mamlakatlariga chiqqanda qanday qilib o'zlikni yo'qotmaslik bo'yicha muhokama o'tkazish. Masalan o'qish yoki ish yuzasidan uzoq muddatga o'zga yurtda tili, urf-odatlarini va madaniyati unutlmaslik haqida maslahatlar ishlab chiqish.

11-mavzu. Madaniyatlararo muloqotga o'qitish uchun o'quv materiallari (adabiyot, gazetalar) dan foydalanish.

Ta'lim jarayonida o'quvchida turli xalqlar madaniyatlarini tushuntirish doirasida ularga tegishli bo'lgan mashhur adabiyotlar va gazeta-jurnallardan foydalanish. O'zga xalqlarning turmush tarzi haqida shu adabiyotlar bilan tushuntirish olib boorish va hayotiy misollar bilan o'rganish.

12-mavzu. Madaniyatlararo muloqotga o'qitish uchun o'quv materiallari (TV, internet, rasmlar, realiyaliklar) dan foydalanish.

Ta'lim jarayonida turli xalqlar madaniyati bilan tanishtirishda ommaviy axborot vositalarining o'rni va ularning foydali tomonlari haqida so'z yuritish. O'zga xalqlar tashqi qiyofalari va kiyinish madaniyatlarini ifodalovchi rasmlarni o'rganish.

13-mavzu. Madaniyatlararo muloqotga o'qitish uchun o'quv materiallari (filmlar, ramzlar va h.k.) dan foydalanish.

O'qitish jarayonida xalqlar uchun ramzlar qanchalik ahamiyatga ega ekanligini tushuntirib o'tish. Ularni tanishtirish uchun filmlar va rasmlardan foydalanilgan holda taqdimotlar tayyorlash. Har bir xalq uchun alohida ishlab chiqilgan dars ishlanmalari ustida ish olib boorish.

14-mavzu. O'zga madaniyatga oid mavzularni oqitish va materiallarni yaratishda o'ta xushyor bo'lish, materiallarni tahlil qilish (darsliklar, dars ishlanmalari/konspekt, topshiriqlar/vazifalar)

Turli xalqlar madaniyatini o'rganish doirasida maxsus dastur ishlab chiqib ularni aniq faktlar va ma'lumotlarni isbotlovchi materiallar bilan boyitish. Bu borada O'zbekistonda joylashgan turli mamlakatlar elchixonalari bilan hamkorlikda qo'llanma va darsliklar yaratish.

15-mavzu. O'zga madaniyatga oid mavzularni oqitish va materiallarni yaratish (3 ta maqsad: til, pedagogika, madaniyat).

Til o'rgatishda madaniyatning o'rni va pedagogik yondashuv turlarini o'rgatish. Bu yo'nalish bo'yicha til o'rgatish metodikasi fani bilan hamkorlikda dars konspektlari ishlanmalarini tuzish.

16-mavzu. O'zga madaniyatga oid mavzular uchun yaratilgan o'quv materiallarning taqdimoti.

Modul so'ngida ushbu fanga aloqador barcha mavzularni qamrab oladigan va turli xalqlar madaniyatini ifodalaydigan materiallar bilan boyitilgan taqdimot tuzish. Taqdimot yuzasidan muhokamalar tashkil etish.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Joyce Merrill Valdes (1995), Culture Bound. Cambridge University Press.
2. Tomalin and Stempleski (1993), Cultural Awareness, Oxford University Press
3. Derek Utley. Intercultural Resource Pack. – CUP, 2004.
4. http://people.tamu.edu/~i-choudhury/culture.html
5. Byram, M., Nichols, A. and Stevens, D. (2001) Developing Intercultural Competence in Practice.
6. Corbett, J.,(2010) Intercultural Language Activities Cambridge: CUP
7. Fox, K. (2004) Watching the English. London
8. Gill, S., Cankova, M. (2010) Oxford basics. Intercultural Activities. Oxford: OUP
9. Bryson, B. (1990) Mother Tongue: The English Language. Penguin Books.
10. Crystal, D (2003) English as a Global Language. Cambridge University Press, New York.
11. Graddol, D. (2005) English Next. British Council
12. Utley, D. (2004) Intercultural Resource Pack: Intercultural communication resources for language teachers. Cambridge: CUP

2.06. Chet tillarni o'qitishning integrallashgan kursi fanining asosiy qismi

Chet tillarni o'qitishning integrallashgan kursi amaliy fan bo'lib, barcha til ko'nikmalarini integrallashgan holda o'qitishni nazarda tutadi. Ushbu fan talabalarni chet tilini o'qitish uslublari bilan batafsil tanishtiradi hamda kelgusi kasbiy faoliyatlarida darsni shu usulda tashkil etishga yo'naltiradi. Fan auditoriyada o'rgatilayotgan chet tilidan asosiy aloqa vositasi sifatida samarali foydalanishga va talabalarning kasbiy ixtisoslashuvini rivojlantirishga xizmat qiladi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Fanni o'qitishdan maqsad talabalarning xorijiy til bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma, malakalarini kasbiy va ilmiy faoliyatda erkin qo'llay olishlarini ta'minlash, talabalarni til bo'yicha egallangan bilimlarni baholash nazariyasi va amaliyoti bilan tanishtirish hamda baholash mezonlarining maqsad va vazifalarini to'g'ri belgilay olishga o'rgatish hisoblanadi. Shuningdek, chet tilini turli yosh guruhlarida o'qitish usullari va metodlarini hamda o'qitish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yosh bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish, ta'lim yo'nalishi va kasbiy ixtisoslashuv xususiyatlarini e'tiborga olgan holda har xil guruhlarda chet tili samarali o'qitilishini tashkil etishga o'rgatishdir.

Faning asosiy vazifasi umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlarga ko'ra talabalarning o'rganilayotgan chet tilini C1 darajada egallashlari uchun zaruriy bilimlarni integrallashgan tarzda o'rgatish va muloqot malakalarini rivojlantirishdir.

III. Asosiy amaliy qism (amaliy mashg'ulotlar)

"Chet tillarni o'qitishning integrallashgan kursi" 2–4 kurslar davomida 12 ta modulga ajratilgan holda o'qitiladi. Fanni o'qitishda modullar izchilligiga va o'zaro bog'liq holda o'qitilishiga asosiy e'tibor qaratiladi. 4- kurs davomida 5 ta modul o'qitiladi.

1-modul. Chet tillarni o'qitishning tamoyillari va yondashuvlar

Chet tillarni o'qitishning tamoyillari va yondashuvlar moduli 4-kurs talabalariga mo'ljallangan bo'lib, 7-semestrda o'qitiladi. Ushbu modulning maqsadi talabalarni o'qitish usullari va usullarning o'zgarishi tarixi bilan tanishtirish; talabalarda o'qitish jarayonidagi maqsadlarni shakllantirish, o'quvchilar kuchli va zaif tomonlarini aniqlash va farqlash qobiliyatini rivojlantirish, ingliz tilini o'qitishda turli xil yondashuvlarning afzalligi va afzal bo'lmagan tomonlarini o'rgatish.

2-modul. Til bo'yicha bilimlarni baholash turlari va mezonlari

Ushbu modul 4-kurs talabalariga mo'ljallangan bo'lib, 30 soatdan iborat va 7-semestrda o'qitiladi. Modul maqsadlari: talabalarni baholash va test sinovlari nazariyasi va amaliyoti bilan tanishtirish; baholash jarayonida talabalarning maqsadi va yo'nalishini farqlash qobiliyatini rivojlantirish. Kurs oxirida talabalar chet tilini o'rganish jarayonini baholashning asosiy tamoyillaridan xabardor bo'ladilar; ingliz tili testlarining har xil turlarini.

3-modul. Turli yoshdagilarga chet tilini o'qitish

Ushbu modul 4-kurs talabalariga mo'ljallangan bo'lib, 30 soatdan iborat va 8-semestrda o'qitiladi. Kurs oxirida talabalar til o'qitish davomida asosiy yondashuvlar, usullar va muammolarni o'rganib chiqadilar va turli yosh guruhlari bo'yicha amaliy tahlillarga erishadilar. Kurs davomida asosan yoshlarga ingliz tilini o'rgatishga alohida e'tibor beriladi. Ushbu kurs oxirida talabalar turli yosh guruhlarining asosiy xususiyatlarini aniqlay olish.

4-modul. Auditoriyani o'rganish(tadqiq etish)

Auditoriyani o'rganish(tadqiq etish) moduli 4-kurs talabalariga mo'ljallangan bo'lib, 30 soatdan iborat va 8-semestrda o'qitiladi. Ushbu modul 3 kursda o'qitilgan "Auditoriyani o'rganish (tadqiq etish) 1" modulining uzviy davomi hisoblanadi. Ushbu modulni o'rganish auditoriyani tadqiq etish kichik hajmdagi ilmiy ishning sistematik turi ekanligiga, o'rganish davomida yig'iladigan ma'lumotlarga asoslangan asosiy mazmunli tahliliga asosiy e'tibor qaratiladi.

5-modul. Maxsus yo'nalish(soha)larda chet tilini o'qitish

Maxsus yo'nalish(soha)larda chet tili moduli 4-kurslarga mo'ljallanib, 8-semestrda chet tili o'qitishning asosiy usullari va yondashuvlari bilan tanishadilar. Kurs oxirida talabalar oddiy ehtiyojlar tahlilini o'tkaza olish; berilgan konteksda maxsus yo'nalish o'quvchilari uchun kursni loyihalashtira olish;

20 soat o'qitiladi va kurs davomida talabalar maxsus yo'nalishlarda chet tili ...

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Brinton, D & P. Master (1998) *New Ways in English for Specific Purposes* Alexandria, VA: TESOL
2. Brown, D. P., & Nacino-Brown (1990) *Effective Teaching Practice.* Cheltenham: Nelson ThornesLtd.
3. Dudley-Evans, T. & M-J. St John (1998) *Developments in English for Specific Purposes.* Cambridge: Cambridge University Press.
4. Johnson, K. (2001) *An Introduction to Foreign Language Learning and Teaching.* Harlow: Pearson Education.
5. Hughes, A. (2003) *Testing for Language Teaching.* Cambridge: Cambridge University Press.
6. Larsen-Freeman, D. (1986). *Techniques and principles in language teaching.* New York: Oxford University Press.
7. Marian Whitehead (2007) *Developing Language and Literacy with Young Children,* Paul Chapman Publishing
8. McKay, H and Tom, A (1998) *Teaching Adult Second Language Learners,* Cambridge: Cambridge University Press
9. Nunan, D. (1992). *Research Methods in Language Learning.* Cambridge and New York: CUP.
10. Ur, P (1996) *A Course in Language Teaching: Practice of Theory,* Cambridge: Cambridge University Press
11. Wajnryb, R. (1992), *Classroom Observation Tasks.* Cambridge and New York: CUP
12. Wallace, M.J. (1998), *Action Research for Language Teachers.* Cambridge and New York: CUP.

5111400-Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari uchun ixtisoslik fanlari

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi savollari

3.03 Tili o'rganilayotgan mamalakatlar adabiyoti fani bo'yicha savollar:

1. What poets presented a bridge between Classicism and Romanticism?
2. What poems written by William Blake do you know?
3. What features of Burns' and Blake's poetry bring them close to the romantic trend of the 19th century?
4. What is the difference between the passive and revolutionary trends of Romanticism?
5. Why are some romanticists called the Lake poets?
6. When was the first collection of poems by Byron published?
7. Why do we consider Byron to be a real fighter for freedom?
8. Who was the first great writer of historical novels in English literature?
9. Why did Scott leave the field of poetry to Byron?
10. What groups have Scott's works been divided into?
11. What is the main conflict of the novel "Ivanhoe"?
12. What social problems did Scott try to solve in his novels?

13. How would you characterize the 19th century in American literature?
14. What has the Chartist movement in common with the critical realism?
15. Name the greatest English critical realists you know.
16. What did Charles Dickens write about?
17. What works belong to Dickens's first period of literary work?
18. What works by Dickens were written between the years 1842-1848?
19. When was Dickens's "Hard Times" written and what was described in it?
20. Why is Dickens called the creator of the theatre for one actor?
21. What are the greatest merits of Thackeray's works?
22. What classes of society does he show in his novels?
23. What is the meaning of the subtitle of Vanity Fair?
24. What vices of the society are exposed in "Vanity Fair"?
25. Who are the main characters of the novel "Vanity Fair"?
26. Which character embodies the spirit of Vanity Fair?
27. When did the first English colonizers come to America?
28. How did the spiritual life develop in America?
29. What was the contribution of American enlighteners to the Revolution?
30. Who was the best representative of American Enlightenment?
31. What is Benjamin Franklin's most popular work?
32. What are the specific features of American Romanticism?
33. What is W. Irving's contribution to American literature?
34. What are J.F. Cooper's novels about American Indians?
35. Which novel has become the best portrayal of Puritan America?
36. Why is E.A. Poe acknowledged as a founder of a genre of a detective story?
37. What is abolitionism and where has it started?
38. What was the result of the movement abolitionism?
39. What do you know about Harriet Beecher-Stowe and her work?
40. What was H. Longfellow's contribution to the movement of abolitionism?
41. Why "The Song of Hiawatha" is so important even for a contemporary reader?
42. What were the results of the Civil War and its impact on the development of American literature?
43. What is the most important collection of poems published by Walt Whitman?
44. What is specific with Mark Twain's humor and satire?
45. What are the most popular topics raised by O. Henry in his stories?
46. What is the phenomenon "lost generation"?
